
O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil topgan kun munosabati bilan bayram tabrigi

Hurmatli askarlar va serjantlar, ofiserlar va favqulodda vaziyatlar bo'limi xizmatchilari!

Mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, bugun muhtaram Prezidentimiz rahbarliklari ostida yurtimizda amalga oshirilayotgan oqilona islohot va yangilanishlar jarayonida Favqulodda vaziyatlar vazirligi jamoasi ham zimmasidagi mas'uliyatli vazifalarni sharaf bilan uddalab kelishmoqda.

Ayniqsa, muhtaram Yurtboshimiz tomonidan vazirlik tizimida boshlab berilgan tubdan takomillashtirish ishlari, tizim xodimlarining bir yoqadan bosh chiqarib, "O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish" shiori ostida kunni tun, tunni kun demay sadoqat bilan xizmat qilayotganliklarini alohida qayd etib o'tish joizdir.

Shu o'rinda, yurtimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar jarayonida favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlarining harakatlari alohida e'tirofga sazovordir.

Ishonch bilan aytish mumkinki, soha faoliyatini takomillashtirish, qutqaruvchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoyalash, vazirlik moddiy- texnik bazasini yanada mustahkamlash, bir so'z bilan aytganda, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish Davlat tizimining tezkorligi va ishonchligini oshirish bundan keyin ham faoliyatimizning bosh mezonini bo'lib qolaveradi.

Barchangizni bugungi sana munosabati bilan chin qalbimizdan samimiy muborakbod etamiz.

Oilangizga tinchlik-xotirjamlik, mustahkam salomatlik tilayman, sharafli va mashaqqatli kasbingizda hamisha omad va muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!

S. Soliyev, Rishton tumani hokimi.

R. Madaliyev, Rishton tumani prokurori.

X. Toshpo'latov, Rishton IIB boshlig'i.

D. Rahimov, Rishton DSI boshlig'i.

2023-03-04 14:05:56